

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

QODIROV Nabijon Dadaxanovich*Yunus Rajabiy nomidagi
o'zbek milliy musiqa san'ati
instituti dotsenti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820703>

“QASHQARCHAI SAVTI SARVINOZ” ASHULASINING BADIY-ESTETIK VA TARBIYAVIY JIHATLARI

ANNOTATSIYA

O'zbek mumtoz ashularini talqin qilib borish milliy ashula ijrochilik san'atini kelajak avlodga mukammal tarzda yetkazish hamda uni to'laqonli rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy ashularimizda ifodalangan ma'no-mazmun shu qadar keng ko'lamligi, ularni yangidan idrok qilib borishga ehtiyoj bor. Mazkur maqolada Shashmaqomning Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'balari tarkibiga kiruvchi, Mavlono Lutfiy g'azali bilan ijro etiladigan Qashqarchai Savti Sarvinoz ashulasi falsafiy va badiiy-estetik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ashula, g'azal, musiqa, maqom, talqin, hofiz, mumtoz, Ishq, muhabbat, mumtoz ashula, badiiylik, estetik zavq, bayt, tasavvuf, timsol.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ОФОРМЛЕНИЕ ПЕСНИ “КАШКАРЧАИ САВТИ САРВИНОЗ” И ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

АННОТАЦИЯ

Интерпретация узбекских классических песен важна для идеальной передачи искусства национального песенного исполнения следующим поколениям и его всестороннего развития. Потому что смысл, выражаемый в наших гимнах, настолько широк, что их необходимо понимать заново. В данной статье философско-художественно анализируется песня Кашкарчая Савти Сарвиноз, входящая во вторую группу ветвей статуса Бузрука Шашмакома, исполняемая с газелем Мавлано Лютфий.

Ключевые слова: песня, газель, музыка, статус, интерпретация, хафиз, классика, ишк, любовь, классическая песня, артистизм, эстетическое наслаждение, стих, мистика, символ.

ARTISTIC AND AESTHETIC DESIGN OF THE SONG “KASHKARCHAI SAVTI SARVINOZ” AND EDUCATIONAL ASPECTS

ANNOTATION

The interpretation of Uzbek classical songs is important for the ideal transfer of the art of national song performance to the next generations and its comprehensive development. Because the meaning expressed in our hymns is so broad that they need to be understood anew. This article philosophically and artistically analyzes the song of Kashkarchaya Savti Sarvinoz, which is included in the second group of branches of the status of Buzruk Shashmakom, performed with the gazelle Mavlano Lutfiy.

Key words: song, ghazal, music, status, interpretation, hafiz, classics, ishq, love, classical song, artistry, aesthetic pleasure, verse, mysticism, symbol.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan barcha sohalar qatori xalqimizning bebaho merosi hisoblanmish milliy mumtoz musiqa san’ati rivojiga ham yuksak e’tibor bilan qaralmoqda. Jumladan, “Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib o’sib kelayotgan avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” degan ezgu fikrlar ilgari surilib mazkur san’at turini yanada rivojlantirish borasida bir qator qaror va farmonlar imzolandi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo’yicha ulkan amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda esa, milliy musiqa ijrochiligi san’atining salmoqli qismi hisoblanmish mumtoz ashula ijrochiligiga oid bir qator ilmiy masalalarni hal qilib olish vazifasi mutaxassislar va keng jamoatchilik oldida turibdi. Ana shunday masalalardan biri o‘zbek mumtoz ashulalar g‘azallarini *talqin qilish* masalasidir. Albatta, mumtoz ashulalarni talqin qilish yo‘llari ko‘p.

Ulardan biri va bizga nisbatan maqbulrog‘i falsafiy va badiiy – estetik talqin qilishdir. Musiqa san’atining vakillari mumtoz ashularimizning mazmunini individual tushunishlari sir emas. Biroq, keng jamoatchilikka manzur bo‘ladigan talqin usullarini yaratish yo‘lidan borishimiz maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek mumtoz ashularini talqin qilib borish milliy ashula ijrochilik san’atini kelajak avlodga mukammal tarzda yetkazish hamda uni to‘laqonli rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy ashularimizda ifodalangan ma’no-mazmun shu qadar keng ko‘lamliki, ularni yangidan idrok qilib borishga ehtiyoj bor. Ma’lumki milliy mumtoz ashularimizda eskirib qolgan so‘zlar, arabiy yoki forsiy birikmalarning ko‘p uchraganligi bois, aksariyat havaskor xonandalardan tortib, hatto elga tanilgan ayrim hofizlar ham mumtoz ashularimiz matnini tushunmagan holda buzib aytishlari odatiy holga aylanmoqda. Har bir kuylayotgan hofiz yoki tinglayotgan shinavanda milliy ashularimizga yuksak muhabbat va samimiy ehtirom bilan qaramog‘i lozim. Shuningdek, undan munosib ulush olishni istaganlardan pokiza ruhb pokiza qalb va pokiza nigoh talab qilinadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni Mavlono Lutfiy (1366-1465) g‘azali bilan aytiladigan, “Buzruk” maqomi tarkibiga kiruvchi “Qashqarchai Savti Sarvinoz” ashulasining falsafiy va badiiy-estetik tahliliga tortamiz.

Musiqiy adabiyotlarda mazkur ashula “*Qashqarchai Savti Sarvinoz*” deb yuritiladi va bu “Koshg‘ar” etnonemining xalq tomonidan “Qashqar” deb talaffuz qilinishiga asoslangan. Aslida “Qashqar” – katta makon demakdir [1].

Mavlono Lutfiy 99 yillik umri davomida elimiz xizmatida bo‘ldi, uning deyarli har bir she’ri musiqa bog‘lanib kuylangan. Jumladan, “Qashqarchai Savti Sarvinoz” ning boshlanmasi :

*Bir parivash g‘amzasi aqlimni Majnun ayladi,
Ko‘z yumub ochguncha holimni digarchun ayladi.*

Bu o‘rinda “parivash” betimsol Jononning tajalliysi (zuhuri), “g‘amza” nozu karashmaga to‘liq Ishq “aql” Oshiqning (insonning) o‘zligi, “Majnun” – Ishq nurida kuygan o‘zlik, “ko‘z” – voqea- hodisalarning mohiyati, “hol” – Oshiqning maqomi, “digarchun” esa Oshiq egallagan navbatdagi maqom [2].

Bu g‘azal tamkin (sokinlik) maqomidan (tasavvufdagi ruhiy xolat bosqichidan) talvin (bezovtalik) maqomiga o‘tganda yozilgan. Shu ma‘noda baytning mazmuni quyidagicha, “Nogoh Jonon husnining nuri o‘zligimni barbod ayladi va bir lahzada holim o‘zgardi”. Nima gap? Lutfiy hazratlari “ko‘z yumub ochguncha” sof o‘zbekcha ibora bilan Qur‘onu karimdagi malika Bilqisning taxtini Sulaymon huzuriga “ko‘z ochib yumguncha” oyatiga ishora qilgan (16:39). Chunki Bilqisning *taxti* – Ishq ramzidir. Bu o‘rinda Bilimning “ayn ul-yaqin” (ko‘z bilan ko‘rib ishonish) bosqichi to‘g‘risida so‘z bormoqda [3].

Shu sababli g‘azalda muqaddas Ishqning tavsifi beriladi va aynan ilk bayt “*savti sarvinoz*” dir (bokira ohangdir). Chunki, “ko‘z yumib ochguncha bo‘lgan lahzada aqldan ayirish” uchun o‘sha betimsol Janon sarvinoz bo‘lishi kerak. Barini hech kim ko‘rmagan, lekin u farishta (yoki malak) emas. Pari o‘z Oshig‘ini kuydirish va sinashni xush ko‘radi, farishta (yoki malak) esa o‘z Oshig‘iga ba‘zan taskin berib turadi.

Ikkinchi bayt :

*Subhidam kundek chiqib ko‘rg‘uzg‘ach ul qutlug‘ yuzin,
Toleim mas‘ud-u baxtimni humoyun ayladi.*

“Subhidam” (erta tong) – vasl oni, “Kun” (Quyosh) betimsol Jononning tajalliysi, “qutlug‘ yuz” – Ishq olovi, “tole”- Oshiqning zavqi, “mas‘udu baxt” – Oshiqning maqsad-muddaosi, “xumoyun” esa Oshiq erishgan ruhiy kamolot. Baytning mazmuni : “Betimsol Jonon pokiza lahzalarda jamolini zuhur etib, bizni asl baxtimiz bo‘lgan kamolotga yetkazib turadi”. Muhammad Botirning “Maqomati Xoja Naqshband” asarida keltirilishicha, Bahouddin Naqshband (1318-1389) demishki, “tamkin talvindan afzaldir” [3].

Buning ma‘nosi shuki, Lutfiy kabi orif ijodkorlar talvin (iztirob) maqomida turib ijod qilishni xush ko‘radi. Bilishning bu maqomida istagancha mubolag‘ani fikr yuritish mumkin. Shu sababli baytda “tong vaqtida Quyoshdek qutlug‘ yuzini ko‘rsatdi” deyilgan. Vaholangki, betimsol Jononning qutlug‘ yuzi shu qadar porloq nurga ega bo‘ladiki, u moddiy olamni kuydirib yuboradi. Bilishning tamkin (sokinlik) maqomida esa Oshiq betimsol Jonondan anglaganlarini oshkora qilmaydi, ichiga yutadi. Hofizlarimiz esa maqomlarimiz ashularini tanlashganida, talvin holatida ijod qilingan she‘rlarni tanlashgan. Chunki talvin bosqichida turib yozilgan asarlarda *muqimiy ohang* va *fikr* kuchli bo‘ladi. Shu jihatdan uchinchi baytga e‘tibor bering :

*Ko‘p yugurmakdin kiyik ko‘zi qarordi sahm yeb
Ko‘r, nechuk g‘amzang o‘qi oni jigarxun ayladi.*

Dunyoda kiyik ko‘zi qaroligi va jilvadorligi bilan chiroyli hisoblanadi, bunga sabab kiyikning yuguruvchanligi bo‘ladi. Ayni paytda, bu o‘rinda “kiyik ko‘z” – Oshiqning o‘zi, uning ko‘zi betimsol Jononning “cheksiz nozu karashmasidan bag‘ri qon bo‘lib qorayib ketgan”. Bosh so‘z “qaro (qora)” bo‘lib, u betimsol Jonon ma‘rifatining mohiyati naqadar chuqurligini bildiradi [3]. Baytning mazmuni quyidagicha: “Betimsol Jonon ma‘rifati Oshiqning ruhini sirli tushunchalar bilan uzaytirib yuboradi”. Bunday sharoitda inson sokin turolmaydi (tamkin) va uning iztirob chekish (talvin) bo‘ladi.

To‘rtinchi bayt :

*Intizori yo‘li ustida kuyub ketdi ko‘zum,
Bizni ul Layli sifatlik miski Majnun ayladi.*

Agar bu bayt mazmuni chuqur anglab yetilsa, har qanday odamning beixtiyor kuylagisi keladi. Nega? Oshiqning ko‘zi intizorlik tufayli kuysa, nimasi yomon deng. Eslatish joiz, “ko‘z” – mohiyat ramzi [3], baytga ko‘ra, *birinchidan*, “Oshiqning ko‘zida betimsol Jonon o‘z ishini ko‘radi” ; *ikkinchidan*, “betimsol Jonon o‘z muqaddas nuri bilan Oshiqning (insonning) borlig‘ini kuydirib, u vujudda O‘z nurini qoldiradi va shu sababli Oshiq majnun bo‘lib qoladi”. Bunday insonning Qalbida betimsol Jonon Parivash, Layli, hindui Kashmiri kabi timsollarda zuhur etadi. Shu sababli :

*Sehr elidin voqif erdi hindui Kashmir, bas
Bu ajabkim : turk ekan ul ko‘z, yuz afsun ayladi.*

Bu o‘rindagi “ko‘z” endi betimsol Jononga tegishli. Avvalo baytning dunyoviy ma‘nosi hamda Gap shundaki, Hindistonning Kashmir hududidagi el sehr-joduga usta bo‘lgan, lekin ular Lutfiy janoblari “Oshig‘ining betimsol Jononi Ishqining sehri oldida shogird bo‘lib qoladi”. Ammo, bu o‘rinda “turkiy (o‘zbek) elining ko‘zi” haqida so‘z bormoqda, ya‘ni “Kashmir elining sehr-jodusi turkiy (o‘zbek) qizining ko‘zi afsuni oldida xech narsa emas”. Nega? Mavlono Lutfiy maqsab Sharq shoirlari turkiy (o‘zbek) qizining chiroyli ko‘zi oldida bosh egadi. Misol uchun, Sa‘diy-Sheroziyni (XIII asr) eslang :

*Agar ko‘nglumni rom etsa o‘shal Sheroz turk jononi,
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.*

Endi, Lutfiy janoblari baytining falsafiy mazmuni bunday: “Bizning betimsol Jonon o‘z zuhurlari vositasida ruhimizni ma‘rifat nuriga otib yubordi (afsun)”.

Oltinchi bayt :

*Labba-lab vaslin tilab, topmon kanorin negakim
Ko‘zlarim ol yoshini hasratda Jayhun ayladi.*

Ma‘rifatli hofiz va tinglovchi bu bayt ijro etilganida, o‘rnidan turib ketadi. Bu bayt ashulaning ovoz, musiqa va ruhiy kengma keng uyg‘un sadolanuvini ifodalaydi. Zerokim, “lab” – betimsol Jonon ma‘rifatining sabog‘i, uni faqat Ustoz tushuntira oladi ; “kanora” – betimsol Jononning qirg‘og‘i yo‘q ma‘rifat dengizi va “ol (qizil) ko‘z yoshi” – betimsol Jonon ma‘rifatining lazzatidan Oshiq vujudining erib ketib Jayhun (Amudaryo) bo‘lib oqishi. Baytning mazmuni : “Betimsol Jonon ma‘rifatining mohiyati bizning aqlu shururimizga Siqmaydi, bu rahmat fayzidan vujudimiz (fikru tushunchalarimiz) Jayhun misol oqib ketadi”. Bu fanofilloh maqomi bo‘lib, unga ko‘ra, inson vujudi (borlig‘i) Haq taolo borlig‘ida yo‘q bo‘lib ketadi va shaffof Ruh bo‘lib qoladi [3].

Shu ma‘noda mazkur ashula barcha-barchani Buzruk maqomi ashulalarining mazmuni bilan tanishtiradi. O‘zgaga aytganda, bilishning talvin maqomi insonning O‘zligini poklaydi, ya‘ni “Qashqarchai safti sarvinoz” ijrochi va tinglovchini buzruklashtiradi (yetuklashtiradi).

So‘nggi bayt:

*Bir kun ul xusn elining Sultoni tutqay deb quloq
Ishq – Lutfiyning so‘zini durri majnun ayladi.*

“Durri majnun” (yashirin dur) oyati karimadan olingan bo‘lib (20:31), inson ruhini ifodalaydi. Baytning mazmuni quyidagicha: “Betimsol Jononning ma‘rifati inson ruhini bir kun kelib Jonon ruhiga qo‘shadi”. Mazkur so‘ngi baytda Oshiq yana tamkin (sokinlik) maqomiga qaytadi. Endi u Orif va Komil inson, uni hech kim va hech narsa ideal maqsadu – muddaosidan qaytara olmaydi.

Bir musiqa san‘atining vakili sifatida o‘yga tolasan kishi : ashulani yozgan Mavlono Lutfiy va uni ijro etgan komil hofizlarimizning vujudi nur bo‘lib oqib ketgan bo‘lsa kerak...

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Koshg‘ariy M. “Devoni lug‘at at-turk”. 1- jild. – T . , 1960.
2. Komilov N. Tasavvuf. – T. , 2009.
3. Muhammad Boqir. Maqomati Hoja Naqshband. –T . , 1993.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz